SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 19 - iyul 243-9-128-Q/22 Sirdaryo tuman hokimligi

Sirdaryo tumani Tadbirkor MFY xududidan o‘tuvchi xalqaro ahamiyatidagi “Toshkent – Dushanbe” M-34 avtomobil yo‘lining 95-96 km.lariga Baxt shahar dehqon (yangi) bozori ro‘parasiga avariya o‘choqlari ko‘rsatuvchi ogohlantiruvchi yo‘l belgisini kerakli tartibda o'rnatilishi to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi 377-son “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2019-yil 9-apreldagi 292-sonli “Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash, Sirdaryo tumani Ichki ishlar boshqarmasining 2022-yil 12-apreldagi 31/-1735-sonli xatiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. Tuman hokimligida 2022-yil 12-aprel kuni 339-son bilan ro‘yxatga olingan, Sirdaryo tumani Ichki ishlar boshqarmasining 2022-yil 12-apreldagi 31/-1735-sonli xati qanoatlantirilsin.

2. Sirdaryo yo‘llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi (Sh.Shamsiddinov) va tuman hududiy yo‘llardan foydalanish DUK (B.Bektemirov) belgilangan tartibda quyidagi joyga:

- Tadbirkor MFY xududidan o‘tuvchi xalqaro ahamiyatidagi “Toshkent – Dushanbe” M-34 avtomobil yo‘lining 95-96 km.lariga Baxt shahar dehqon (yangi) bozori ro‘parasiga avariya o‘choqlari ko‘rsatuvchi ogohlantiruvchi yo‘l belgisini kerakli tartibda o'rnatilsin.

3. Sirdaryo tumani Ichki ishlar boshqarmasi YHXB (E.Bayzakov) o‘rnatiladigan yo‘l belgilarini tegishli tartibda hisobga olib, yo‘l harakati xavfsizligiga rioya qilinishini nazoratga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Berdiyev zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan vaqtdan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **B.Mirzaqulov**